



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

4. Announcement of acceptance of scientific articles for issue No. 5 of 2025 of the journal "School Education: Problems, Research, Solutions." – National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni, 2025.
5. A lecture on "Sustainable Development, Peace, and the International Recognition of Islamic Enlightenment in New Uzbekistan." – TDAU, 2025.
6. Regarding acceptance of articles for the scientific journal "Social Opinion. Human Rights." – Social Opinion, 2026.
7. Sattarov O. From Labs to Language: Connecting Israel, the U.S., and Uzbekistan. – THE BUKHARIAN TIMES, 2025.
8. Acceptance of articles for issue No. 3 of 2025 of the "Bulletin of Parliamentary Research" journal. – Institute of Parliamentary Research, 2025.
9. Preventing radicalisation in Uzbekistan – DVV International launches new project. – DVV International, 2026.
10. Requirements of the "Scientific Bulletin of Bukhara State University" journal. – Bukhara State University, 2025.

III-SHO‘BA: MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI

СЕКЦИЯ III: СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ, ЭКОНОМИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ

SECTION III: SOCIO-POLITICAL, ECONOMIC, AND CULTURAL DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN DURING THE INDEPENDENCE PERIOD

YANGI O‘ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Qahramon Rajabov,
tarix fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston FA Tarix instituti
bosh ilmiy xodimi

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/SAYM8846

Annotasiya: maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda jamiyatda xavfsizlik,

millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida olib brogan islohotlarning mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Yangi O'zbekiston, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, demokratiya, parlament, "Yangi shaxs", "Yangi fukarolik jamiyati", "Yangi demokratik boshkaruv tizimi, konstitutsiya.*

ЗНАЧЕНИЕ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ РЕФОРМ, ПРОВОДИМЫХ В НОВЫЙ УЗБЕКИСТАНЕ

Кахрамон Раджабов,
*доктор исторических наук, профессор,
главный научный сотрудник Института истории
Академии наук Узбекистана*

Аннотация: В статье рассматривается значение фундаментальных реформ, проводимых в новом Узбекистане, с акцентом на совершенствование государственного и общественного строительства, обеспечение верховенства закона, Анализируется суть реформ, проводимых Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым в области совершенствования государственного и общественного строительства, обеспечения верховенства закона, реформирования судебной системы, дальнейшего развития экономики, укрепления социальной сферы, а также обеспечения безопасности, межнационального согласия и религиозной терпимости в обществе.

Ключевые слова: *«Новый Узбекистан», Олий Мажлис, Законодательная палата, демократия, парламент, «Новая личность», «Новое гражданское общество», «Новая система демократического управления», Конституция.*

Shavkat Mirziyoev – Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi me'mori

To'rtinchi Renessans Turkistonda jadidlar faoliyati bilan XX asr boshlarida boshlangan edi. Bolsheviklar tomonidan 1917 yilda sovet hokimiyatining majburiy tarzda o'rnatilishi bu jarayonni to'xtatib qoldi. Oradn 100 yil o'tgach, ya'ni 2016-2017 yillardan boshlab Yangi O'zbekistonda Turkiston taraqqiyparvarlarining g'oya va qarashlari davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, To'rtinchi Renessansning uzilib qolgan bosqichi qayta davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov 2016 yil 2 sentyabr kuni vafot etdi. O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa

va vakolatlarini vaqtincha bajarish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoev zimmasiga yuklandi.

Shavkat Mirziyoev 2016 yil 8 sentyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqida O'zbekistonning zamonaviy tarixi mamlakatimizning chinakam mustaqillikka erishishi uchun juda og'ir va mashaqqatli kurash davri bo'lganligini ta'kidlab, jamiyat oldida turgan asosiy vazifa 25 yil davomida qo'lga kiritilgan va samarali amalga oshirilayotgan, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda demokratik islohotlarni va o'zgarishlarni chuqurlashtirish, fukarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari talablarini amalga oshirish, mamlakat suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni davom ettirishdan iborat ekanligini alohida ta'kidladi.

Mohiyat e'tibori bilan aytganda, mazkur sana o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida Yangi O'zbekiston davri boshlangani bilan e'tiborlidir.

2016 yil 4 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga navbatdan tashqari saylovlar bo'lib o'tdi. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 20 461 805 saylovchi ro'yxatga olinib, ulardan 17 951 667 kishi, ya'ni umumiy saylovchilarning 87,73 foizi ovoz berish jarayonida ishtirok etdi. Saylov natijalariga ko'ra, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Sh.M. Mirziyoevni yoklab 15 906 724 saylovchi yoki ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foizi ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi jarayonida 46 ta davlatdan 600 ga yaqin kuzatuvchi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Butunjahon saylov organlari uyushmasi va Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar ishtirok etdilar. Ushbu saylov jarayonida birinchi marta Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT)ning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining 32 ta mamlakatdan 200 ga yaqin kuzatuvchilar hay'ati to'laqonli ishtirok etdi. Xalkaro kuzatuvchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jarayoniga yuqori baho berishdi.

2017 yil 14 yanvarda Shavkat Mirziyoev Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida ma'ruza qilib, keyingi besh yil davomida bir qator muhim strategik vazifalarni amalga oshirish masalasini kun tartibiga qo'ydi va tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Ma'ruzada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi loyihasi yuzasidan takliflar bildirildi. 18 yanvar kuni esa, Prezidentning O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni loyihasi muhokama uchun e'lon qilindi. Harakatlar strategiyasi loyihasi jamoatchilik tomonidan keng muhokama qilinib, takliflar bildirildi. 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish hamda jamiyatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni yuritish kabi besh ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan Harakatlar strategiyasi tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar har bir yil dasturida o'z ifodasini topdi. 2017 yildan boshlab Prezident tomonidan Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etiladigan bo'ldi. 2017 yil 22 dekabrda prezidentning dastlabki Murojaatnomasi «*Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili*»da amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni xamda 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlandi. Unda 2018 yil «*Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili*» deb e'lon qilindi.

Mamlakatimizda yangidan shakllangan an'anaga ko'ra, 2019 yil «*Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili*», 2020 yil «*Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili*» deb e'lon qilindi hamda ushbu yo'nalishda tegishli Davlat dasturlari amalga oshirildi. 2021 yil «*Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili*» deb belgilandi. 2025 yil esa «*Atrof-muhitni asrash va yashil*

iqtisodiyot yili” hamda 2026 yili “*Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili*” deb e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat va jamiyatni erkinlashtirish sharoitida bir qator muhim takliflarni ilgari surdi. Xususan, 2017 yil 12 iyulda parlament palatalari, siyosiy partiyalar. O‘zbekiston Ekologik harakati, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining faoliyati tahliliga bag‘ishlangan videoselektorda mamlakatdagi siyosiy partiyalar, barcha vakillik organlari Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi, viloyatlar, shaharlar, tumanlar, xalq deputatlari Kengashlarining xalq oldida javobgarligini kuchaytirish lozimligini ta’kidladi.

Davlat rahbari ikkala palata faoliyatini yanada takomillashtirish va kengaytirish zarurligini qayd etdi. Prezident tashabbusi bilan parlament nazorati tizimini kengaytirish maqsadida Senat raisi va Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va mamlakatimiz qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini yanada demokratlashtirish, siyosiy partiyalar faolligini oshirish, demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lgan partiyalararo raqobatni kuchaytirishda muhim omil bo‘ldi.

Prezident taklifiga binoan, respublika hukumatining yangi rahbari: Bosh vazir sifatida Abdulla Nigmatovich Aripov tayinlandi hamda Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi tuzildi. Davlatning ustuvor vazifalariga muvofiq ijroiya organlarining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator yangi vazirliklar, davlat qo‘mitalari tashkil etildi. Xususan, Madaniyat vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Turizm va sport vazirligi tashkil etildi. Keyinchalik vazirliklar miqdori ba’zan qisqartirildi, ba’zan kengaytirildi va h.k.

2017 yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar idoralari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish amaliyoti joriy etildi. Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ijroiya hokimiyati tuzilishi va unga yuklatilgan vazifalarni sifat jihatdan takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar boshlandi. 2019 yilda «Korrupsiyaga qarshi kurashish» to‘g‘risida qonun qabul qilindi.

2019 yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga navbatdagi saylov bo'lib o'tdi. Ko'rsatilgan nomzodlar yetarlicha ovoz olmagan 25 ta saylov okrugida 2020 yil 5 yanvar kuni takroriy saylov o'tkazildi. Oliy Majlisdagi deputatlik o'rinlari quyidagicha taqsimlandi: Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 53 o'rin, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi 36, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 24, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 22 va O'zbekiston ekologik partiyasi 15 o'rin oldi.

2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomani yo'lladi. Murojaatnomada, jumladan, qonunchilikda muhim masalalar bo'yicha ham takliflar ilgari surildi. Xususan, davlat rahbari «parlament va xalq deputatlari Kengashlarida davlat organlari rahbarlari va hokimlarning fuqarolar murojaatlarida ko'tarilgan masalalar qay darajada hal qilinayotgani bo'yicha hisobotlarini muntazam eshitish tizimini yaratish to'g'risida»gi tashabbusni kun tartibiga qo'ydi.

Konstitutsiyaviy islohotlar – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi tarixiy zaruriyat

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, Taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topayotgan, adolatli va xalqparvar davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, yangi konstitutsiyaviy makon hamda yanada mustahkam qonunchilik bazasi kerak bo'lishi tabiiydir.

Mamlakatimizda 2021 yil 24 oktyabrda bo'lib o'tgan Prezident saylovi jarayonida fuqarolarimiz, keng jamoatchilik, siyosiy partiyalar vakillari tomonidan siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy-iktisodiy sohalarda, shuningdek, qonun ustuvorligi masalalari bo'yicha chuqur va tizimli islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha aniq takliflar bildirildi. Ularning tahlili shuni ko'rsatdiki, jamiyat va davlatimizni rivojlantirish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, qonunchilik mezonlari va normalarini eng rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish zarurati hayotimizning konstitutsiyaviy asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etmokda.

Shu ma'noda, Asosiy Qonunimizni jamiyatdagi bugungi real voqelikka, shiddatli islohotlarimiz mantig'iga moslashtirish, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratish muhim ob'ektiv zaruratga aylanmoqda.

Ma'lumki, bugungi kunda insoniyat o'z taraqqiyotida keskin burilish davrini boshdan kechirmokda. Dunyo iqtisodiy va innovatsion o'sish, inson va jamiyat hayoti sifatini yaxshilash uchun ulkan yangi imkoniyatlar yaratadigan texnologik davrga qadam qo'ymokda. Xalqaro munosabatlar tizimida koronavirus pandemiyasi (COVID-19) va uning oqibatida kelib chiqqan chuqur inqiroz tufayli jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Axborot texnologiyalarining jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariga kirib borishi ijtimoiy mehnat munosabatlari tarkibiy tuzilishining jiddiy o'zgarishiga olib kelmoqda. Ilm-fan, ta'lim hamda zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha mutlaqo yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda.

Zamonamizning bu va boshqa qator masalalari butun davlat boshqaruv tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga *"Yangi shaxs", "Yangi fukarolik jamiyati", "Yangi demokratik boshkaruv tizimi"*ga olib chiqishni talab qiladi. Bu qat'iy talab, o'z navbatida, tizimli konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishni kun tartibiga dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Asosiy qonun asosida 2023 yil 9 iyulda o'tkazilgan prezidentlik saylovida davlat rahbari Shavkat Mirziyoev yetti yil muddatga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qilib saylandi.

Jadidlar merosi va qo'rboshilar jasoratining bugungi kundagi siyosiy va tarixiy ahamiyati

O'zbek davlatchiligining 3500-4000 yillik tarixida ajdodlarimizning yurt ozodligi va millat mustaqilligi uchun olib borgan fidokorona kurashlari masalasi muhim o'rin tutadi. Bu borada bobo-momolarimiz ko'rsatgan qahramonliklar haqida har qancha aytsak, yozsak, shuncha oz. Negaki bugungi yorug', emin-erkinlik kunlariga osonlikcha yetib kelingan emas. Demak, biz tarixchilar oldida turgan bosh vazifa ham aynan ushbu o'ta muhim va zarur mavzu –el-yurt ro'shnoligi yo'lida o'zidan kechgan ko'plab

ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini ilmiy jihatdan o'rganish va olingan natijalarni bugungi avlod ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirishdan iboratdir.

Shu bilan birga, tarix haqiqatlaridan yana birini ham ta'kidlab o'tishimiz ham farz, ham qarz. Milliy ozodlik harakatlari, jadidchilik, qatag'onlar haqida bemalol izlanishlar olib borish, ommaviy axborot vositalarida so'z aytish, yopiq arxivlarga kirish imkoni tug'ilganiga ko'p bo'lgani yo'q. Bu kabi zarur va savobli ishlarga Yangi O'zbekiston sharoitidagina qo'l urish imkoni tug'ildi. So'nggi yillarda ilm-fan, ayniqsa, tarixga bo'lgan alohida g'amxo'rlikning qadr-qimmatini biz tarixchilar, sovet davrida va, ming afsuski, mustaqillik yillarida ham ta'qibga uchragan olimlar yaxshi bilamiz. Bolsheviklar hokimiyatiga qarshi milliy ozodlik kurashlarini "bosmachilik" deb bilish, jadidchilik ahamiyatini chuqurroq va kengroq ochishga bo'lgan ilmiy intilishlarni bo'g'ish kabi xunuk holatlar yaqin-yaqingacha oddiy va tarix fanimizda ustuvor bo'lib qolganiga shaxsan guvohmiz.

Bugun yurtimizda hukm surayotgan mutlaqo o'zgacha muhit, tug'ilgan shart-sharoitlar o'laroq bundan o'n yil oldin ham til tegizish mumkinmas yoki maqbulmas bo'lgan ilmiy masalalar ustida astoydil izlanish imkoni bor. Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Shahidlar xotirasi xiyobonida aytgan mana bu so'zlari biz olimlarga katta dalda bo'lganini ta'kidlagan bo'lardik: **"Har safar bu yerga kelib, xalqimiz ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan jasur bobolarimizni eslab, ko'nglimiz taskin topadi. Ularni xotirlash, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun ham qarz, ham farz. Qatag'on qilingan yetakchilarimizning taqdiri barchamizni mustaqilligimizni qadrlashga, uni asrab-avaylashga undaydi"**.

Darhaqiqat, qo'lida qurol yoki qalam bilan istiqloq uchun jonini tikkan ko'pdan-ko'p ajdodlarimizni esdan chiqarishga haqqimiz yo'q. Shu ma'noda, yaqin-yaqingacha 1918 – 1935 yillari mintaqamizda sovet rejimi hamda uning qurolli kuchlari bo'lgan qizil armiyaga qarshi hayot-mamot kurashini olib borgan harbiy sarkardalarimiz – qo'rboshilar hayoti va faoliyati, ularning fojiali taqdiri o'rganilmasdan kelganini alohida ta'kidlagan bo'lardik. Holbuki aynan ular yetakchiligida o'zbek xalqi sovet imperiyasiga qarshi jahon tarixida misli ko'rilmagan ozodlik kurashini olib borganlar. Eng muhimi, Turkistonda milliy davlatchilikni tiklash uchun salkam yigirma yil

kechgan qurolli harakat qandaydir uyushmagan, xalqdan uzilgan “o‘g‘ri-qaroqchilar to‘dasi”ning samarasiz urinishlari emas, balki butun el-yurt – kattayu kichik, erkak-u xotin-qiz, barcha toifa va tabaqalar qo‘llab-quvvatlagan, aniq maqsadi bor umummilliy qarshilik kurashi bo‘lgan edi.

Birlamchi manbalar va hujjatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, istiqlolchilik harakati qatnashchilarining Turkistondagi umumiy miqdori qurolli kurash eng kuchaygan 1919-1922 yillarda bir vaqtning o‘zida 180 000 – 200 000 kishi atrofida bo‘lgan. Janglarda yo‘qotilgan askarlar o‘rnini doimiy ravishda xalqimizning barcha tabaqalari orasidan chiqqan o‘n minglab yigitlar to‘ldirib turgan. Sovet rejimiga qarshi qurolli kurash davom etgan qariyb 20 yil davomida istiqlolchilik harakati saflarida hammasi bo‘lib 2 mln kishi ishtirok etgan.

Qizil askarlarga qarshi hayot-mamot kurashida nafaqat erkaklar qatnashdi, balki unda xotin-qizlar va bolalar ham kurash maydonida o‘z otalari, erlari, o‘g‘illari bilan birgalikda dushmanga qarshi jang qilgan holatlar juda ko‘p bo‘lgan.

Tarixiy hujjatlarda ko‘rsatilishicha, 1921 yil aprel-may oylarida Sharqiy Buxoroda sovet hokimiyati va qizil askarlar zo‘ravonligiga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari kuchayib ketadi. Ularda erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlar ham faol qatnashganlar. O‘sha kezlardagi ahvolni qizil armiyaning 1-Turkiston otliqlar diviziyasining qo‘mondoni bo‘lgan Spasskiy shunday tasvirlagan: “Juldur kiyimli, iflos, och qizil askarlar ... Ko‘lobda bo‘lgan ikki kunlik janglardan so‘ng shaharni talon-toroj etish uchun yopirildilar. Ular bu yerda qolgan tinch aholini otib tashlab, 50 ayolni zo‘rlab nomusiga tegdilar, 140 xotin-qiz esa qal‘aga qochib yashirindi. Komissarlarning (ularni bo‘ysundishi uchun) butun harakatlari hech qanday natija bermayapti”.

Qizil askarlarning bunday zulm va zo‘ravonliklariga qarshi butun mintaqada ayollar qo‘lga qurol olib kurashganlar. Turkiston qo‘rboshilari o‘rtasida Karmanada Nodira qiz, Farg‘ona vodiysida Shakarxon, Muhiddinbekning onasi kabi ayol qo‘rboshilar ham bo‘lib, ular dushmanga qarshi kurashganlar. Nodira qiz va Muhiddinbek qo‘rboshining onasi rahbarligida ayollardan tuzilgan 30-50 kishilik maxsus guruhlar qizil askarlarga qarshi hayot-mamot janglarini olib borishgan.

Tomur Xotun (Malika To'maris)ning yigirmanchi yuzyillikdagi izdoshlari bo'lgan ayollarimiz Turkistonda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, tarixiy o'lkamiz parchalab tashlangandan keyin ham yana o'n yil davomida kurashni davom ettirganlar. 1927 yilda Farg'ona vodiysining O'zgan tumanidagi Qorasho'ra qishlog'ida qizil askarlarga qarshi janglarda ayollar ham qatnashganlar. Qizil askarlarning boshqa bir otryadi bu paytda qo'rboshi Jonibek Qozi guruhiga qo'shila olmagan 80 nafar ayolni tog'larda ushlab, hibsga olganlar. Ular orasida Jonibek Qozining qizi va ukasining xotini ham bo'lgan. Qizil askarlar keyinchalik bu ayollarni otib tashlaydi.

1931 yil avgust oyida Turkmaniston SSR hududidagi Kultaqir qudug'i atrofida qizil askarlarga qarshi bo'lgan to'rt soatlik jangda g'alaba qozongan istiqlolchilar safida ayollar va bolalar ham bo'lib, ular jangchilarga non va suv yetkazib turganlari ma'lum. O'sha yili 17 sentyabrda Qoraqum sahrosida Doxli qishlog'ida qizil askarlarga qarshi bo'lgan sakkiz soatlik qaqshatqich jangda xotin-qizlar va bolalar ham qatnashganlar. Arxiv hujjatlarida keltirilishicha, qo'zg'olonchilar so'nggi o'q qolguncha kurashganlar. Ayollar va bolalar yovga qarshi miltiq otishdan tashqari, tosh otish va hatto kaltaklar bilan qarshilik qilganlar. Biroq kuchlar tengsizligi oqibatida yurt himoyachilari mag'lubiyatga uchrab, jang maydonida 200 dan ortiq odam halok bo'lgan, 500 nafarga yaqin ayollar va bolalar asir olingan. Ular sovet rejimi tomomnidan shafqatsizlarcha qatag'on qilingan.

Turkistondagi istiqlolchilik harakati nafaqat harbiy jihatdan, balki siyosiy va tashkiliy jihatdan ham puxta yo'lga qo'yilgan muazzam umumxalq kurashi sanaladi. Istiqlolchilarning harbiy strategiyasi va jang qilish taktikasi o'ziga xos bo'lgan. Ular safida mahalliy sharoitni ipidan-ignasigacha yaxshi bilgan yo'lboshlovchilar ko'p bo'lgan. Qo'rboshilar bo'lajak jang shart-sharoitlarini oldindan ko'ra olishgan, chunonchi, qizil askarlarning miqdori, ular qurol-yarog'ining turlari va soni, hujum qilish usullari yoki chekinishi – hamma-hammasi oldindan puxta o'rganilgan.

Istiqlolchilar ochiq jang maydonlaridan tashqari hovli va bog'larda, qishloqlardagi devorlar ortida, mahalla va guzarlarda xuddi baliq suvda suzganidek erkin harakat qilishgan. Ular o'z muqaddas tuproqlarini qizil bosqinchilardan ozod qilish uchun hayot-mamot janglari olib borayotganlarini yaxshi bilishar edi. Shu bilan birga

vatanparvarlar tog‘u toshlarda, cho‘lu biyobonlarda, odam borishi qiyin bo‘lgan dara va tog‘ cho‘qqilarida ham kurashni davom ettirib, qizil askarlarni qon qaqshatgan.

Istiqlolchilarning o‘ziga xos kurash usullari, ularning butun xalq tomonidan doimo qo‘llab-quvvatlanishi qizil askarlarning tobora g‘azabini qo‘zg‘atardi. Natijada sovet armiyasi jangchilari butun-butun shahar va qishloqlarni vayron qilib, ularning kulini ko‘kka sovurishardi, qishloqlarni havodan turib aeroplanlarda bombardimon qilishar, tinch aholini qirib tashlashar, Turkiston xalqini zaharli kimyoviy gaz ishlatib bo‘g‘ib o‘ldirishar, quduqlarni zaharlashar, qisqasi, qizil armiya qo‘mondonlari Frunze va Kamenev tomonidan Turkistonda bo‘lganlarida ishlab chiqilgan “bosmachilik”ka qarshi kurash maxsus instruksiyasini so‘zsiz bajarishar edi. Unga muvofiq, qizil armiya qo‘mondonligi joylarda qiruvchi otryadlar va maxsus uchar otliqlar otryadlari tashkil qilib, nafaqat istiqolchilarni, balki ularga yordam ko‘rsatayotgan va xayrixoh bo‘lgan, ya’ni “bosmachilik bilan zararlangan” butun hududlardagi tinch aholini shafqatsiz ravishda qirib tashlagan.

Istiqlolchilik kurashining mohiyatini sovet qo‘mondonligi vakillari ham e’tirof qilishga majbur bo‘lganlar. 1920 yil 18 avgustda 2-Turkiston o‘qchi diviziyasi komandiri F.Karpov Turkiston fronti qo‘mondoni M.Frunze bilan telegraf orqali bevosita suhbatida shunday degan edi: “Farg‘onadagi urush qaroqchilarga qarshi kurash bo‘lmasdan, balki bu yerda kurash tub aholining sovet hokimiyatiga qarshi tashkiliy ravishdagi qo‘zg‘oloni hisoblanadi. Bosmachilar bo‘lib o‘tgan janglarda katta kuch yo‘qotsalar-da, hozirgi vaqtda ularning safi yangidan, hattoki, avvalgidan ham ortiq darajada to‘lib bormoqda...”.

Farg‘ona vodiysida ham, Samarqand viloyatida ham, Buxoro va Xorazm respublikalarida ham xalqimiz domimy ravishda istiqolchilarni oziq-ovqat, kiyim-kechak, otlarni esa yem-xashak bilan ta’minlab turgan. Boylar va mulkdorlar qurol-yarog‘ sotib olish uchun katta miqdorda mablag‘ ajratishgan. Xalqning kuchli madadi va moddiy yordami bo‘lmasa istiqolchilar sovet davlatiga qarshi 17-18 yil davomida emas, balki 18 kun ham kurasha olmas edi. Biroq bu tarixiy haqiqat sovet hokimiyati yillarida unutilishga mahkum etildi. Aslini olganda yovqur va azamat bobolarimizning zamonaviy qurollarga ega va tish-tirnog‘igacha qurollangan qizil armiyaga qarshi

qahramonona kurashi va jasorati o'zbek xalqi tarixining XX asr birinchi yarmidagi eng shonli va zafarli zarvaraqlarini tashkil qiladi.

Turkiston qo'rboshilarining umumiy miqdori ming nafardan ortiq bo'lgan. Hozirgacha ulardan faqat 300-400 nafarining harbiy faoliyati nisbatan o'rganilgan. Kichik Ergash, Katta Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek, Omon Polvon, Yormat Maxsum, Rahmonqul, Islom Polvon, Muhiddinbek, Xolxo'ja Eshon, Jonibek Qozi (Farg'ona vodiysi), Bahrombek, Ochilbek, Xolbo'tabek, Mirza Polvon, Qoraqulbek (Samarqand), Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Davlatmandbek, Fuzayl Maxdum, Hayit Amin, O'rmon Polvon, Hamro Polvon, Asadullabek, Abdulqayum Parvonachi, Mustafoqulbek, Turdi To'qsabo, Xurrambek, O'tanbek (Buxoro), Junaidxon, G'ulomalixon Bahodir, Rajabxon, Durdi Qilich, Temir Alixon, Yaxshi Geldibek, Bolabiy, Anna Bola, Eshon Xalifa (Xorazm) kabi yirik qo'rboshilar faoliyati xususan tahsinga sazovordir. Qo'rboshilar qiyofasi, ularning harbiy faoliyati, istiqlol janglari, xalq bilan munosabati, bolsheviklarning ularga qarshi terror siyosati xususida ko'p gapirish mumkin.

Sovet qo'mondonligi maxsus bo'limining xodimlari tomonidan tayyorlangan "mutlaqo maxfiy" hujjatlarda Farg'ona viloyatidagi qizil askarlarga qarshi harakat qilgan 181 nafar qo'rboshiga xarakteristika beriladi. Masalan, sovet ayg'oqchilaridan birining ma'lumotiga ko'ra, "Katta Ergash qo'rboshining musulmon va rus aholisi o'rtasida paydo bo'lishi olqishlarga sazovor bo'ldi, unga eng yuksak tilaklar tilandi hamda uning qiyofasida Andijon va Qo'qonda o'rnatilgan sovet qo'shinlaridan, hukumat vakillaridan va har qanday zo'ravonlikdan xalos qiluvchi insonni ko'rdilar".

Yangi O'zbekistondagina nihoyat nomi rosmiyan yuzaga chiqqan Ibrohimbek sovet hokimiyati tomonidan butun Sharqiy Buxorodagi markaziy siymo, deya tan olingani ham bejiz bo'lmagan.

Sovet hokimiyati Turkistondagi istiqlolchilik harakatini bostirish uchun barcha kuch va vositalarni ishga soldi. Mintaqani "o't va qilich" bilan bo'ysundirish siyosatini yuritdi. Buning uchun doimiy ravishda Rossiya markazidan katta miqdorda harbiy kuch, texnika va qurol-yarog' yetkazib keldi.

Rasmiy ma'lumotlarda keltirilishicha, 1920 yil yozida Rossiyadagi qizil armiyaning

umumiy miqdori 5,5 mln kishi edi. Turkistondagi sovet hokimiyati ixtiyorida esa 181 800 harbiy bo'lgan. Mazkur deyarli 200 000 kishilik ulkan qo'shin yurtimizdagi milliy ozodlik harakatini bostirishda, jadidlarni ta'qib etishga, sovet hokimiyatiga qarshi chiqqan yoki betaraf turgan barcha kishilarni ommaviy ravishda qatag'on qilishda ishga solingan.

Sovet hokimiyati tomonidan 1928-1930 yillarda "qishloqni yot unsurlar"dan tozalash jarayoni boshlanganda, o'zbek qishloqlaridan kamida 500 000 ta xonadon boy va quloq xo'jaligi sifatida o'z oilalari bilan surgun va badarg'a qilindi, qamoqxonalarga tashlandi. Ularning aksariyati turma va surgunda vafot etdi. Bu zo'ravonlikka qarshilik ko'rsatganlar esa shoshilinch otib tashlandi. Birgina Buxoro okrugi Shofirkon tumanidan 1929-1934 yillarda 510 xonadon "quloq xo'jaligi" sifatida SSSRning turli hududlariga surgun qilingan. Ular orasida o'ziga to'q xonadon sohibi Razzoq bobo (1850-1930) o'g'li, Bog'iafzal qishlog'ida yashovchi 24 yashar yosh yigit Sharof Razzoqov (1905-1975) ham bo'lgan. Sharof Razzoqov 7 marta sovet rejimi tomonidan qamoqqa olingan va surgun qilingan.

Xulosa qilganda, chindan ham bugungi erkin hayotga osonlikcha yetib kelingan emas. Buning uchun juda ulkan qurbonliklar berilgan. Endigi avlodning muqaddas burchi millatimiz fidoyilarining qahramonliklarini bilish, ardoqlash, tinch-osoyishta kunlarimiz qadriga yetishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Тошкент: O'zbekiston, 2017.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: O'zbekiston, 2017.
3. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: O'zbekiston, 2018.
4. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.
5. Мирзиёев Ш. Миллий тикланишдандан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: O'zbekiston, 2020.

6. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нashри. – Тошкент: O'zbekiston, 2022.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Isakov Bahodir Nigmatullayevich,
tarix fanlari nomzodi, dotsent,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
b.isakov@uzswlu.uz

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/SROS2079

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi natijasida yuzaga kelayotgan ma'naviy tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda yoshlar ongini axloqiy tubanliklardan himoya qilishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni, shuningdek, Internet tarmog'idan foydalanish madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada Yaponiya tajribasi hamda buyuk ajdodlarimiz – Amir Temur, Abdurauf Fitrat merosiga tayanilgan holda, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ma'naviy immunitet va vatanparvarlik tuyg'usining strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *globallashuv, ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy immunitet, Internet xavfsizligi, ma'naviy meros.*

FACTORS OF FORMING NATIONAL IDENTITY AND SPIRITUAL VALUES AMONG THE YOUTH OF UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Bahodir Nigmatullayevich Isakov,
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor,
Uzbekistan State University of World Languages
Email: b.isakov@uzswlu.uz

Annotation. This article analyzes the spiritual threats and negative consequences of "popular culture" resulting from the acceleration of globalization processes in the 21st century. It examines the role of national and universal values in protecting the consciousness of youth from moral decline, as well as the issues of developing a culture of Internet use. Drawing on the experience of Japan and the heritage of great ancestors such as Amir Temur and Abdurauf Fitrat, the article substantiates the

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

